



Bugun, 22-mart kuni Silk Avia aviakompaniyasi Toshkent – Qo'qon – Toshkent yo'nalishi bo'yicha birinchi yo'lovchi aviaqatnovini ATR 72-600 havo kemasida amalga oshirdi.



Yaqindagina Silk Avia aviaparkiga kelib qo'shilgan yangi havo kemasini Qo'qon shahri aeroportida Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri aholisi va keng jamoatchilik kutib oldi. Tadbirda O'zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralari vakillari, milliy aviakompaniya rahbariyati, jurnalistlar va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.



Farg'ona viloyati hokimi Xayrullo Bozarov va Transport vaziri Ilhom Maxkamov Prezident va hukumat tomonidan mamlakatning har bir hududini rivojlantirishga qaratilayotgan e'tiborni ta'kidladilar. Ular o'z chiqishlarida so'nggi yillarda transport va logistika sohasida, ayniqsa fuqaro aviatsiyasida amalga oshirilayotgan ishlarga to'xtalib o'tdilar. Manzillarga tezda yetib borish – bu mintaqada ham, mamlakatda ham iqtisodiy rivojlanish va eng muhimi, ichki turizm uchun katta imkoniyatdir.



Mehmonlar karnay surnay sadolari ostida aeroport majmuasini tantanali ravishda ochib, shuningdek, ko'ngilochar dasturi boshlanishiga "start" berdilar.



Uzbekistan Airways guruhiga kiruvchi Silk Avia mintaqaviy aviakompaniyasi Toshkentdan Qo'qon shahriga birinchi yo'lovchi reysini amalga oshirib, O'zbekiston fuqaro aviatsiyasi tarixida yangi sahifa ochdi. Farg'ona viloyatidagi Qo'qon shahrining yangilangan aeroportiga qo'nishni ATR 72-600 havo kemasi ekipaji – Sergey Tkach va Semyon Oreshen boshqaruvida amalga oshirdi. Ushbu turdagi havo kemalari yo'lovchilarni yaqin masofalarga xavfsiz va qulay tashishga imkon beradi. Toshkentdan Qo'qonga parvoz davomiyligi 35 daqiqani tashkil etdi.



Aeroportda uchish-qo'nish yo'lagi 2000 metrgacha uzaytirildi va ikkita havo kemasi uchun to'xtash joyiga ega perron rekonstruksiya qilindi. Shuningdek, 100 kishiga mo'ljallangan 900 kvadrat metr maydonli yangi yo'lovchi terminali qurildi.



20-mart kuni Uzbekistan Airways ekipajining A320neo havo kemasida amalga oshirilgan texnik parvozi aerodromning havo kemalarini qabul qilish va jo'natishga hamda terminalning yo'lovchilarni qabul qilish va ularga xizmat ko'rsatishga to'liq tayyorligini ko'rsatdi. Yaqin kunlarda Toshkent – Qo'qon – Toshkent yo'nalishi bo'yicha muntazam aviatashuvlar yo'lga qo'yilishi kutilmoqda.

Eslatib o'tamiz, Qo'qonga aviaqatnovlar 20 yildan ortiq amalga oshirilmagan va Navro'z bayrami arafasida Toshkent va Qo'qon aholisi uchun O'zbekiston Respublikasi bo'ylab yana bir sayohat manzili paydo bo'ldi.







[Download PDF](#)